

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

***LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN
O‘ZBEK ALIFBOSI VA IMLOSI***

(OQUV QO‘LLANMA)

TOSHKENT-2004

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlosi. O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti nashriyoti, 2004, 92 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va yangi imlo qoidalarini oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalariga o'rgatish maqsadida tuzilgan. Unda o'zbek yozuvlari tarixi, imlo asoslari, tovushlar va ularning yozuvdagi ifodasi bo'lgan harflar imlosi, qo'shma so'zlar, juft so'zlar, qo'shimchalar imlosi, yo'zish va o'qish mahoratini oshirish mashg'ulotlariga alohida e'tibor qaratilgan. O'quv qo'llanmada berilgan mavzular va mashqlar talabalar, pedagoglar, iqtisodchilar, korhona va tashkilotlar xodimlari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor

**Nishonboy Husanov
Zuhra Rasulova**

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar

**O'roqboy Lafasov
Komila Rahimova**

Qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengashining 2004 yil 3 apreldagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya qilingan (5-sonli qaror).

1-mavzu: Kursning amaliy ahamiyati. "Lotin yozuviga o'tish to'g'risida" chiqarilgan qonun va qarorlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir".

O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik tarixida bir qator yozuvlardan foydalangan. Miloddan oldingi VI-IV asrlarda oromiy, III-I asrlarda shu yozuv bilan bir qatorda yunon, miloddan boshlab II-III asrlarda xorazm, V-VIII asrlarda turkiy xalqlar ijodi mahsuli bo'lgan turk-run (O'rxun-Enasoy) yoki dulbarjin, VI-XYIII asrlarda uyg'ur yozuvidan ham foydalanildi. Shuningdek, moniy, eftalit, pahlaviy, suriya, eski uyg'ur, hind va boshqa yozuvlarda bitilgan turkiy tildagi manbalar kam miqdorda bo'lsada bizgacha etib kelgan. Xalqimiz qariyb 14 asr mobaynida (VIII asrdan 1929 yilgacha) arab yozuvidan foydalanib keldi.

1929-yilda lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o'tildi. 1940- yilning may oyidan boshlab lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi kirill grafikasidagi yozuv tizimiga ko'chirildi. Bu alifboda 30 ta harf bor edi.

Qisqa muddat ichida o'tkazilgan ikki alifbo almashuvi xalqimiz savodxonligining oshishiga, madaniy yuksalishiga jiddiy zarar etkazdi: tilimiz ravnaqiga, imlomiz ravonligiga, savodxonligimizning oshishiga bir qator to'siqlarni keltirib chiqardi.

1993-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonuni qabul qilindi.

"Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanib va o'zbek yozuvining lotin alifbosiga o'tilgan 1929-1940 yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib keng jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlarini inobatga olgan holda respublikaning har tomonlama kamol topishini va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishini jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Qonun alifbo sirasida 31 ta harf va 1 ta tutuq belgisi bo'lishini qayd etadi. 1995-yil 6-mayda ushbu Qonunga qisman o'zgartirishlar kiritildi va alifbo 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida"gi 1995-yil 6-maydagi qaroriga ko'ra mazkur e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan hamda yangi alifboga bosqichma-bosqich o'tilib, bu ish 2005-yil 1-sentabrga qadar to'liq tugallanishi belgilab qo'yilgan.

1996-yil 1-sentabrdan e'tiboran maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarida va umumta'lim maktablarining 1-sinflarida yangi alifbo bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishni, qolgan sinflarda esa fakultativ darslar tashkil etishni ta'minlasin.

Ayni paytda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (1995-yil 24-avgust, 339-son) qabul qilindi.

Ushbu Qonun va Qarorlarni amalga oshirish uchun barcha tashkilot va muassasalar, mutaxassis olimlar jiddiy ravishda ishga kirishdi. Vazirlik va idoralar bir qator chora tadbirlarni belgilashdi. Jumladan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ham bu borada qator vazifalarni belgilab berdi.

Yangi alifbo va uning imlosiga o'rgatish nihoyatda muhim, umumdavlat ahamiyatiga molik ishdir. Uning oliy o'quv yurtlarida maxsus kurs sifatida o'qitilishi bejiz emas. Bu kurs talabalar savodxonligini oshirishga ham, ularning ma'naviy olamini boyitishga ham tegishli hissa bo'lib qo'shiladi.

Yangi imlo qoidalar oldingi imlo qoidalaridan ko'p o'rinlarda jiddiy farq qiladi. Shunga ko'ra uning har bir bandi nihoyatda katta e'tibor bilan o'rganilishi lozim. Shunga erishish lozimki, har bir bandeda ko'zda tutilgan asosiy qoidalar talabalar tomonidan ongli ravishda to'la tushunilgan holda o'zlashtirilishi lozim. Ularni ongli ravishda o'zlashtirish ushbu bandlarni yodlash uchun, yodda saqlab qolish uchun imkon beradi.

Didaktik talablar mashq turlarining aralash qo'llanishi yaxshi samara berishini ko'p isbotlagan, amaliyot bu xulosalarni tasdiqlaydi. Shunga ko'ra alifbo va imlo qoidalarini

o'zlashtirishda yozma holdagi mashqlar ham alohida mavqega ega. Ayniqsa, husnixat mashqlari amaliy jihatdan katta samaradorligi bilan ajralib turadi.

Vazirlikning buyrug'ida mazkur kursga 60 soat ajratilgani ko'rsatilgan. Ularning barchasi amaliy mashg'ulotlar tarzida o'tkaziladi.

Yangi alifbo va imlo qoidalarini o'rgatishdagi asosiy maqsad ana shu qoidalarning ongli ravishda to'liq o'zlashtirishdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni belgilash mumkin:

- 1) Yangi alifbodagi harflar sirasini o'rganish;
- 2) har bir harfning barcha unsurlarini to'liq va to'g'ri o'zlashtirish;
- 3) o'rganuvchilarda harflarning ham yozma, ham bosma shaklini to'g'ri va me'yorida yoza olish malakasini shakllantirish;
- 4) ushbu kurs asosida talabalarning ma'rifiy bilimlarini oshirish. Buning uchun har bir oliy o'quv yurti o'z imkoniyatlarini va yo'nalishidan kelib chiqqan holda sohaga doir qiziqarli ma'lumotlardan matn sifatida foydalanishi va mashqlar tizimida ayni shu sohaga oid ilmiy yangiliklarni jalb etishi maqsadga muvofiq bo'ladi;
- 5) ayni paytda ushbu kursni o'tish asosida talaba yoshlarning umummadaniy, badiiy-estetik didlarini tarbiyalash, ularni o'stirish imkoni ham mavjud. Tanlanayotgan matnlardagi tarbiyaviy jihatga e'tibor berish ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Qo'llanmada ana shu vazifalarni amalga oshirish yo'llari hisobga olingan.

Kursning amaliy ahamiyati "Davlat tili" va "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun va qarorlarda o'z ifodasini topgan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISINING QARORI

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qaror qiladi:

1. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni e‘lon qilingan kundan e‘tiboran amalga kiritilsin (1993 yil 2 sentyabr).

2. Yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tilib, bu ish 2005 yil 1 sentyabriga qadar to‘liq tugallansin.

3. Respublika davlat komissiyasi:

uch oylik muddat ichida maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarida, maktablar, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalarida yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tishning davlat dasturi va tartibini ishlab chiqsin va uni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig‘iga taqdim etsin;

1995 yil davomida o‘zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdig‘iga taqdim etsin;

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va Oliy Majlisning ushbu Qarorini ro‘yobga chiqarishda davlat hokimiyati va boshqaruvning respublika hamda mahalliy organlariga uslubiyat va axborot bobida muntazam ravishda yordam ko‘rsatib borsin;

respublika va mahalliy boshqaruv organlarining yangi alifboni joriy etish yuzasidan qilinayotgan ishlar to‘g‘risidagi axborotlarini muntazam tinglab borsin;

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tishning davlat dasturi va tartibi asosida:

lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini amalda joriy etishga doir aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

1996-yil 1-sentyabrdan e‘tiboran maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida, umumta‘lim maktablarining birinchi sinflarida yangi alifbo bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazishni, qolgan sinflarda esa fakultativ mashg‘ulotlar tashkil etishni ta‘minlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi 1996- yil 1-avgustga qadar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini o‘rganish uchun kerakli darsliklar va boshqa qo‘llanmalar nashr etilishini ta‘minlasin.

6. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarning hokimlari respublika davlat komissiyasi bilan kelishilgan holda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishga doir dasturi amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar tuzsinlar.

7. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari, jamoat birlashmalarining respublika organlari, shu jumladan, tasarruflaridagi korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda ham xodimlarga yangi alifboni o‘rgatishni tashkil etish hamda buning uchun kerakli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va texnika vositalari bilan ta‘minlash yuzasidan maxsus ishchi guruhlarini tuzsinlar.

Belgilab qo‘yilsinki, yangi alifboni joriy etishga doir barcha xarajatlar mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar, korxonalar, tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan (budget tashkilotlari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

1994-yilgi hamda undan keyingi yillarga mo‘ljallangan Davlat budgetini shakllantirish chog‘ida yangi alifboni joriy etish maqsadida zarur bo‘ladigan mablag‘larni budgetdagi tashkilotlar uchun-Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga ajratilishini nazarda tutsin;

1995-96 yillar davomida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish bilan bog‘liq tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta‘minlashning hamda korxonalar, tashkilotlar, xo‘jaliklar va o‘quv yurtlarida yangi alifboni fakultativ tarzda o‘rganishni tashkil etishning birinchi galdagi masalalarini hal etsin;

ushbu Qaror bajarilishining borishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini muntazam xabardor qilib tursin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amaldagi qonun hujjatlarini "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiqlashtirish yuzasidan takliflar tayyorlasin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

10. Yangi alifboga to'liq o'tilgan paytdan, ya'ni 2005 yilning 1 sentyabridan e'tiboran 1940 yil 8 mayda qabul qilingan "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbedan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbesiga ko'chirish to'g'risida"gi (O'zbekiston SSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1940 yil, 14) O'zbekiston Respublikasining qonuni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASINING QARORI**

1995 yil 24 avgust 339-son Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish tog‘risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.
2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan O‘zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining imlo lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.
4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va Fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi

I.Karimov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

DAVLAT TILI HAQIDA

(yangi tahrirda)

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili O‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi, shu jumladan unga hamma e‘tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta‘minlanadi.

O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o‘zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so‘zlash huquqi ta‘minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi mustaqillik siyosati ko'p milliy masalalarga, tarixga boshqacha nazar bilan qarash masalasini qo'ymoqda. Ayni paytda bu masalada respublikamizda katta ishlar qilinmoqda, matbuotda, radio-televideniya axborotlar berilmoqda. Millati, irqidan qat'iy nazar biz bilan ishlayotgan, yashayotganlar tariximizni, madaniyatimizni, tilimizni hurmat qilishi shart. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi o'qitish, o'rganish tamoyillarini, usullarini tubdan o'zgartirishni taqozo qilmoqda.

1993 yil 2 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va bir tutuq belgisi (apostrof) dan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba'zi harflar jahon aloqa-aralashuv tizimiga kirishimizda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligi hisobga olinib,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 6 mayda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga binoan, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilandi. Yangi alifbo asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlanib, unda harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo‘shimchalar imlosi, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko‘chirish qoidalari o‘z ifodasini topgan.

Imlo qoidalarining hozirgi kunda eng muhim qismi-“harflar imlosi”. O‘zbek lotin alifbosidagi va o‘zbek kirill alifbosidagi harflarning deyarli yarmi bir xil, bularni o‘qish va yozish ko‘nikmasiga egamiz. Ba’zi harflar boshqa tovushni biriktirib o‘rganiladi, ba’zi harflar yangi harf sifatida o‘rganiladi.

Lotin yozuvidagi xat chapdan o‘ngga tomon yoziladi. Xat boshidan katta harf bilan yoziladi, harflar bir-biriga bog‘lanadi. Tinish belgilari kerakli o‘rinlarda qo‘yiladi, bo‘g‘in ko‘chirish ma’lum qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Topshiriqlar:

1. Quyidagi so‘zlarni yangi alifboga o‘girib yozing.

Aybnoma, ayniyat, balki, baxtiyor, vasiyatnoma, viloyat, gimn, guvohnoma, davlat, darslik, deputat, Evropa, etmish, yog‘och, yomg‘ir, janub, zidlik, ziynat, imtihon, iltifot, kafolat, massa, matbuot, ma‘lumot, nashriyot, nasiba, oylik, oltin, panorama, poligrafiya, reaksiya, roman, sadoqat, sammit, taklif, tantana, qadim, emigrant, fakultet.

2. Quyidagi maqollarni yangi alifboga o‘girib yozing.

Aql bilan adab-egizak.

Birga vafo-mingga vafo.

Bola aziz, odobi undan aziz.

Vaqting ketdi-naqding ketdi.

Gilam sotsang, qo‘shningga sot-bir chekkasida o‘zing o‘tirasan.

Daromadga qarab-buromad.

Yer-xazina, suv-gavhar.

Zarar ko‘rmay, foyda qayda?

Ikki o‘n besh-bir o‘ttiz.

Kattani katta bil, kichikni-kichik.

2-mavzu Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi
Bosma va yozma harflari
YANGI ALIFBO

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	Aa	a	Qq	Qq	qe
Bb	Bb	be	Rr	Rr	er
Dd	Dd	de	Ss	Ss	es
Ee	Ee	e	Tt	Tt	te
Ff	Ff	ef	Uu	Uu	u
Gg	Gg	ge	Vv	Vv	ve
Hh	Hh	he	Xx	Xx	xe
Ii	Ii	i	Yy	Yy	ye
Jj	Jj	je	Zz	Zz	ze
Kk	Kk	ke	O‘ o‘	O o	o‘
Ll	Ll	el	G‘g‘	Gg	g‘e
Mm	Mm	em	Sh sh	Sh sh	she
Nn	Nn	en	Ch ch	Ch ch	che
Oo	Oo	o	Ng ng	Ng ng	nge
Pp	Pp	pe			

1993 yil 2 sentyabrda qabul qilinib, 1995 yil 6 mayda o‘zgarishlar kiritilgan o‘zbek alifbosi.

O‘zbek kirill alifbosi

Aa-Aa-aksioner
 Bb-Bb-byudjet
 Vv-Vv-veksel
 Gg-Gg-garov
 Dd-Dd-delegatsiya
 Ee-Ee-evrovalyuta
 Yoyo-Yoyo-yombi
 Jj-Jj-jamg‘arma
 Zz-Zz-zarar
 Ii-Ii-import
 Yy-Yy-yig‘imlar
 Kk-Kk-kompaniya
 Ll-Ll-litsenziya
 Mm-Mm-marketing
 Nn-Nn-narx-navo
 Oo-Oo-ob‘ekt
 Pp-Pp-privatizatsiya
 Rr-Rr-rentabellik

Ss-Ss-ssuda
 Tt-Tt-tadbirkor
 Uu-Uu-ulgurji
 Ff-Ff-foiz
 Xx-Xx-xususiy mulk
 Tsts-Tsts-tsitata
 Chch-Chch-chakana baho
 Shsh-Shsh-shartnoma
 ‘-’- ayrish belgisi
 --yumshatish belgisi
 Ee-Ee-eksport
 Yuyu-Yuyu-yuqori
 Yaya-Yaya-yarim
 O‘o‘-O‘o‘-o‘lja
 Qq-Qq-qism
 G‘g‘-G‘g‘-g‘azna
 Hh-Hh-hamkor

O'zbek lotin alifbosi

Aa-Aa-aksioner
Bb-Bb-budget
Dd-Dd-delegatsiya
Ee-Ee-eksport
Ff-Ff-foiz
Gg-Gg-garov
Hh-Hh-hamkor
Ii-Ii-import bitimi
Jj-Jj-jamgarma
Kk-Kk-kompaniya
Ll-Ll-litsenziya
Mm-Mm- marketing
Nn-Nn-narx-navo
Oo-Oo-omonat
Pp- Pp -privatizatsiya

Qq-Qq-qism
Rr-Rr-rentabellik
Ss-Ss-ssuda
Tt-Tt-tadbirkor
Uu-Uu-ulgurji
Vv-Vv-veksel
Xx-Xx-xususiy mulk
Yy-Yy-yig'img'lar
Zz-Zz-zarar
O'o'-O'o'-o'lja
G'g'-G'g'-g'azna
Sh-Sh-shartnoma
Ch ch-Ch ch-chakana baho
Ng ng-Ng ng-teng

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI

*Abdulla Oripov so‘zi,
Mutal Burhonov musiqasi.*

Serquyosh hur o‘lkam elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Oltin bu vodiylar-jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash‘ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona-yurt mangu bo‘l obod!

Oltin bu vodiylar-jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I

*12-chaqiriq, O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Kengashining VII-sessiyasida
1991-yil 18-noyabrda tasdiqlangan.*

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ramzi bizning mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bolgan eng yaxshi an‘analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o‘zligini ham aks ettiradi.

Bayroqdagi havorang-zangori osmon va musaffo suvning, shuningdek, yer va osmondagi hayot manbalarining ramzidir.

Havorang-Amir Temur davridagi bayroqning asosiy belgisi bo‘lgan.

Oq rang-tinchlik va poklik timsolidir.

Qizil yollar-bu har bir tirik jon qon tomirida urib turgan hayotiy kuchning, hayotning va yerning ramzidir.

Yashil rang-tabiatning timsoli, gurkirab yashnayotgan hayot va hosildorlikning ramzidir.

Yarimoy-O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik an‘analariga muvofiq keladi. Yarimoy va yulduzlar-musaffo osmonning, tinchilikning ramzidir.

12 raqami-qadim vaqtlardan buyon mukammallik timsoli bo‘lib kelgan, shuning uchun bizning bayrog‘imizga ham 12 yulduz tasviri tushirilgan.

Davlat bayrog‘i-bizning o‘tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagamiz ramzidir.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

*12-chaqiriq, O‘zbekiston Respublikasi
Oliy Kengashining X-sessiyasida
1992-yil 2-iyulda qabul qilingan.*

Gerbning markazida-qanotlarini keng yozib turgan Humo qushi tasvirlangan. Bu baxt-saodat va erksevarlik ramzidir.

Gerbning yuqori qismida respublikamizning sobit va barqarorligining ramzi bo‘lgan 8 qirrali yulduz ifodalangan.

Quyosh tasviri-bizning davlatimiz va xalqimizning hayot yoli hamisha nurli bo‘lishi uchun bildirilgan yaxshi niyatdir.

Boshhoqlar—risq-ro‘zimiz bo‘lmish g‘allaning timsoli, oppoq bo‘lib ochilayotgan paxta chanoqlari tasvirlangan g‘o‘za shoxlari-serquyosh yurtimizning dovrug‘ini butun dunyoga taratgan asosiy boyligimiz ramzidir. Bug‘doy boshhoqlari va paxta chanoqlarining davlat bayrog‘iga o‘xshagan lenta bilan o‘rab qo‘yilganligi-bu respublikada yashayotgan xalqlar birligining timsolidir.

Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumush rangda; quyosh, paxta chanog‘i va “O‘zbekiston” degan yozuv tilla rangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havo rangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda; O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvirlangan lenta to‘rt xil rangda berilgan.

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Toshkent moliya institutiga 1931 yilda asos solingan. 1962 yili u xalq xo'jaligi institutiga aylantirildi. 1991 yilda xalq xo'jaligi institutining moliya-iqtisod va hisob-iqtisod fakultetlari negizida Toshkent moliya instituti tashkil etildi. U bank va moliya tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Hozirgi kunda institutda 4,9 ming nafar talaba tahsil olmoqda.

Bugungi kunda institutda 7 ta fakultet, 22 ta kafedra, malaka oshirish instituti, mintaqaviy biznes markazi, 2 ta litsey, qimmatli qog'ozlar sohasida malaka oshirish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 13 ta ixtisoslik bo'yicha 3280 nafar talaba ta'lim olmoqda. Aspirantura va doktoranturada ilmiy-pedagog xodimlar tayyorlanmoqda.

Institut bugungi kun talablariga javob beradigan o'quv va moddiy-texnika bazasiga ega. Oliy ta'lim muassasi olimlari, moliya-kredit nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Institutning maxsus o'quv markazida xususiylashtirish o'rganlari va qimmatli qog'ozlar bozori uchun xodimlar tayyorlanadi.

Oliy ta'lim muassasasida xalqaro aloqalar bo'limi faoliyat ko'rsatadi va xorijiy davlatlar, jumladan, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Turkiya va boshqa mamlakatlar ta'lim muassasalari bilan o'zaro aloqalarni amalga oshiradi. "Fulbrayt", "Tinchlik korpusi", "ESI", "DAAD" va boshqa taniqli dasturlar bilan shartnomalar asosida ilmiy-amaliy ishlar olib boradi. Bu dasturlarning vakillari xorijiy tilda o'quvchi talabalar uchun ingliz tilida ma'ruzalar o'qishadi. ESI dasturining o'qituvchilari tomonidan talabalarga ingliz tili o'rgatiladi. Institut talabalari uchun "Umid" jamg'armasi orqali to'g'ridan-to'g'ri kontraktlar asosida xorijiy davlatlarda ta'lim olish imkoniyati mavjud.

Talabalar uyi, umumiy ovqatlanish shoxobchalari, yozgi dam olish maskanlari talabalar va professor-o'qituvchilarga xizmat ko'rsatadi.

Yozgi ta'til davomida institut talabalari Chorvoq suv ombori yonida joylashgan "Iqtisodchi" dam olish maskanida hordiq chiqaradilar. Shu yerda AQSHdan kelgan o'qituvchilar institut biznes maktabida mashg'ulotlar o'tkazishadi.

Topshiriqlar:

1. Quyidagi so'zlarning bosma hamda yozma shakllariga e'tiborni qarating, harflarning o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsating.

Aksiya, bankir, veksel, gazeton, da'vogar, evrovalyuta, yozuvchi, jumhuriyat, zayom, imtihon, yigirma, kasbdosh, lotereya, moliya, natija, obligatsiya, pul, rektor, sarmoya, tadbirkor, foyda, xarajat, tsentner, chegara, shartnoma, energiya, yulduz, yakshanba, o'ttiz, qarz, g'azna, hisobot.

2. Quyidagi so'zlarni yangi alifboda bosma va yozma shakllarda yozing.

Aviatsiya, bayonot, vakil, go'zal, davomat, etarli, joriy, ziyofat, internet, yig'ilish, kashfiyot, lotin, magistratura, noyabr, oqibat, pedagog, referendum, sub'ekt, tijorat, umumdavlat, fonetika, xodim, tsikl, chorshanba, shartnoma, ekologiya, yutuq, yakuniy, o'rinbosar, qismat, g'olib, himoya.

3. Quyidagi so'zlardagi harflarni tutashtirish qoidalari asosida yozing.

Akademik, balans, maqola, teng, ssuda, qism, hamkor, marketing, jamg'arma, litsenziya, ajratma, chek, depozit, bozor, shartnoma, garov, zarar, zayom, da'vo, shaxmat.

3-mavzu Unli tovushlar imlosi. Ularning bosh va kichik, yozma va bosma shakllari

Aa-Aa harfi. Kirill va lotin yozuvida bir xil ko‘rinishda. Katta “A” keyingi harfga belbog‘i orqali, kichik “a” esa pastki ilmog‘i orqali tutashtiriladi: A A a a

1) *ajratma, arenda, aksioner, aksiya, aksiz* kabi so‘zlarda old qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *talab, davlat, savdo, jarayon* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida, *vaqt, qarz* kabi so‘zlarda **a** aytiladi va yoziladi.

Oo-Oo harfi. Bu harf kirill va lotin yozuvida bir xil ko‘ri-nishga ega. Katta “O” harfi keyingi harfga o‘zining pastki qis-midan, kichik “o” harfi yuqori qismidan tutashtiriladi: O O o o

1) *lotin, oligopoliya, moliya, baho, boj, garov, mukofot, mahorat* kabi so‘zlarda orqa qator keng unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *tonna, dollar, talon, direktor* kabi o‘zlashma so‘zlardagi unlini ifodalash uchun yoziladi.

Ii-Ii harfi. Bu harf kirill alifbosida “i” shaklida berilgan. Katta “I” harfi, kichik “i” harfi pastki tugallanish qismidan tutashtiriladi: I I i i

1. *ish, inflyasiya, import, ishlab chiqarish, investor, jarima, lizing, bilan, ikki, ixtisos, piramida, qimmat, chegirma, mijoz, ehtiyoj, depozit, ming* kabi so‘zlarda old qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2. *bo‘lim, o‘rin, o‘timli, o‘ttiz* kabi oldingi bog‘inida **o‘** unlisi keladigan so‘zlarning keyingi bog‘inida **i** aytiladi va yoziladi.

Uu-Uu harfi. Bu harflarning katta va kichik harflarining har ikkalasi ham pastki tutash qismidan tutashtiriladi: U U u u

1) *uy-joy, ulgurji, ustav, unumdorlik, Buxoro, sug‘urta, butun, pul, ssuda, usul, aluminiy, yutuq, yubiley, yevrovaluta* kabi so‘zlarda orqa qator tor unlini ifodalash uchun yoziladi;

2) *tovush, sovurmoq, yovuz, qirg‘ovul* kabi so‘zlarning oldingi bo‘g‘inida **o** unlisi kelsa, keyingi yopiq bo‘g‘in boshidagi **v** undoshidan keyin **u** aytiladi va yoziladi.

O‘o‘-O‘o‘ harfi. Bu harf “o” harfi ko‘rinishiga ega bo‘lib uning yuqori o‘ng tomoniga o‘tish belgisi teskari holatdagi vergul (‘) shaklida qo‘yiladi. Bu harf katta “O” va kichik “o” harflari singari tutashtiriladi: O‘ O‘ o‘ o‘

o‘zbek, o‘ta muhim, o‘lcham, o‘n, o‘ttiz, o‘simlik, to‘qson, do‘ppi, noo‘rin, gulko‘rpa, ko‘paytuvchi kabi so‘zlarda orqa qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

Ee-Ee harfi. Bu harfning kattasi ham, kichigi ham pastki tutash qismidan tutashtiriladi: E E e e

eksport, ehtiyoj, evrovaluta, ekvivalent, depozit, kredit, teatr, kategoriya, resurs, investisiya, e‘lon, atelye, ne‘mat, she‘r kabi so‘zlarda old qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

Yonma-yon keladigan unlilar imlosi:

1) unlilar orasiga ba‘zan **y** undoshi qo‘shib aytilsa ham, yozilmaydi:

a) ia: milliard, tabiat.

b) io: inflyasiya, million.

c) ai: maishat.

d) ea: laureat.

2) **ae, oe** unlilari so‘z ichida kelganda ikkinchi unli **y** aytilsa ham, asliga muvofiq e yoziladi: poema, aerostat.

Boshqa hollarda yonma-yon kelgan unlilar odatda aynan aytiladi va yoziladi: *manfaat, kauchuk, burjua, inshoot, sanoat, muammo, matbuot, rioya* va boshqalar.

Alisher Navoiy
QARO KO‘ZUM

Qaro ko‘zum, kelu mardumlug‘ emdi
fan qilg‘il,
Ko‘zim qarosida mardum kibi
vatan qilg‘il.
Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin
yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin
chaman qilg‘il.
Takovaringg‘a bag‘ir qonidin
xino bog‘la,
Itingg‘a g‘amzada jon rishtasin
rasan qilg‘il.
Firoq tog‘ida topilsa tufrog‘im,
ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da
ko‘hkan qilg‘il.
Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon,
emas mone,
Bu bog‘ tomida gar ignadin
tikan qilg‘il.
Yuzida terni ko‘rib o‘lsam,
ey rafiq, meni
Gulob ila yuvu gul bargidin
kafan qilg‘il.
Navoiy anjumani shavq jon
aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin sham‘i
anjuman qilg‘il.

Topshiriqlar:

1. Tarkibida “a”, “i”, “e”, “o”, “u”, “o” harflari bo‘lgan 10ta so‘z toping hamda ularning bosma va yozma shakllarini yozib mashq qiling.

2. Kirill yozuvidagi “y” harfining yangi alifboda yozilishiga e‘tiborni qarating va bu harf bilan boshlanuvchi 20 ta so‘z keltiring.

3. Quyidagi so‘zlarga tutuq belgisini qo‘yib ko‘chiring.

A‘yon, a‘zo, a‘lo, ba‘zan, be‘mani, valine‘mat, va‘da, va‘z, da‘vat, da‘vogar, jur‘at, za‘faron, in‘om, iste‘dod, mas‘ul, ma‘ruf, ma‘rifiy, ma‘ruza, purma‘no, san‘atkor, ta‘sir, ta‘limot, ta‘kidlamoq, ta‘sis, ta‘qib, fe‘l, sha‘n, qit‘a.

UNDOSH TOVUSHLAR IMLOSI

4 -mavzu: Bb-Pp, Vv-Ff, Dd-Tt harflari imlosi

Bb-Bb harfi. Bu harf kirill alifbosidagi “v” undosh harfiga o‘xshash bo‘lib, katta shakli pastki qismidan, kichigi esa o‘rta qismidan tutashtiriladi: B B b b

1) *bozor, bank, broker, bankrot, boylik, zarb* kabi so‘zlarda jarangli portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *kitob, kelib* kabi so‘zlar oxirida **p** aytilsa ham, **b** yoziladi.

3) *tobla, qibla* kabi so‘zlarda ba‘zan **v** aytilsa ham, **b** yoziladi.

Pp-Pp harfi. Bu harf kirill alifbosidagi “r” harfiga bosma va yozma shakliga o‘xshashdir. Katta “P” harfi pastki qismidan, kichik “p” harfi esa o‘rta qismidan keyingi harfga tutashtiriladi: P P p p

pul, patent, pensiya, passiv, penya, yop, opa kabi so‘zlarda jarangsiz portlovchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi.

Vv-Vv harfi. Bu harf shakl jihatidan kirill alifbosidagi harflarga o‘xshamaydi. Katta “V” harfi pastki qismidan, kichik “v” harfi esa yuqori qismidan tutashtiriladi: V V v v

1) *valuta, veksel, suv, savol, vatan* kabi so‘zlarda ovozdor sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *avtobus, avtomat* kabi o‘zlashma so‘zlarda **v** ba‘zan **f** aytilsa ham, **v** yoziladi.

Ff-Ff harfi. Katta “F” harfi pastki qismidan, kichik “f” harfi o‘rta qismidan keyingi harfga tutashtiriladi: F F f f

1) *fond, foyda, franshiza, fiskal siyosat, franko, insof, isrof, fyuchers* kabi so‘zlarda jarangsiz sirg‘aluvchi lab undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *foiz, fursat, fasl, fayz* kabi so‘zlarda **f** tovushi ba‘zan **p** aytilsa ham, asliga muvofiq **f** yoziladi.

Dd-Dd harfi. Bu harfning bosma va yozma shakli kirill alifbosiga o‘xshamaydi. Katta “D” va kichik “d” harflari pastki qismidan boshqa harfga tutashtiriladi: D D d d

1) *daromad, dividend, dollar, devalvasiya, depozit, bunyod, jiddiy* kabi so‘zlarda til oldi jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

2) *savod, pud, zavod, badqovoq* kabi so‘zlarda **t** aytilsa ham, **d** yoziladi.

Tt-Tt harfi. Katta “T” harfi va kichik “t” harflari pastki qismidan keyingi harfga tutashtiriladi. Katta “T” harfi kirill alifbosidagi “T” harfiga o‘xshash, kichik “t” harfi esa kirill alifbosidagi “g” harfining katta yozma harfiga o‘xshash: T T t t

tijorat, talab, kut, tadbirkor, tashkilot, tovar, o‘t kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Abdulla Oripov
O‘zbekiston

Yurtim senga she’r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun-
Olam aro atagan tanho.
Ular she’ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori,
Bir o‘lka bor dunyoda biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,
Topolmasam chekmasman alam.
O‘tirmasman ertaklar so‘zlab,
Musallo deb yo‘nmasman qalam.
Ko‘klamingdan olib sururni,
Dovrug‘ soldi ustoz Olimjon,
G‘afur Gulom tuygan g‘ururni,
Qilmoq mumkin dunyoda doston.
Olis tarix qadimim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim
Maqtamasman moziyni biroq,
O‘tmishingni o‘ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Topshiriqlar:

1. “Bb-Pp, Vv-Ff, Dd-Tt” harflarining bosma, yozma katta va kichik shakllarini yozib mashq qiling.

2. Quyidagi so‘zlarga “b” harfini qo‘yib ko‘chiring.

Barter, bozor, bank, buxgalter, banknot, balans, brakeraj, biznes, broker, boj, byudjet, qobiliyat, talabnoma, tarkib, kitob, respublika, kibernetika.

3. Quyidagi so‘zlarga “f” harfini qo‘yib ko‘chiring.

Fond, foyda, fyuchers, foiz, fermer, farmon, fuqaro, faoliyat, affiks, diafragma, etnografiya, shrift, sof, tavsifnoma, kafolat, ieroglif,

4. “t” va “d” so‘zlari ishtirokida yangi so‘zlar toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

5 -mavzu: Gg-Kk, Zz-Ss , Jj-Ch ch harflari imlosi

Gg-Gg harfi. Lotin alifbosidagi katta “G” va kichik “g” harflarining yozma shakli kichik “g” ga o‘xshash va keyingi harfga o‘rta qismidan tutashtiriladi: G G g g
garov, giperinflyatsiya, grant, ega, katalog kabi so‘zlarda til orqa jarangli portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Kk-Kk harfi. “K” harfi kirill alifbosi hamda lotin alifbosida bir xil shaklda. Katta va kichik “K”, “k” harflari lotin alifbosida pastki tugallanish qismidan keyingi harfga qo‘shib yoziladi: K K k k
kompaniya, korxonada, kamomad, kredit, kafolat, rekvizit, sindikat, faktura, bank kabi so‘zlarda til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Zz-Zz harfi. Katta “Z” harfi va kichik “z” harflari pastki tugallanish qismi orqali tutashtiriladi: Z Z z z
1) *zarar, zayom, zahira fondi, ziyon, o‘zbek, toza* kabi so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;
2) *iztirob, izquvar, tuzsiz* kabi so‘zlarda jarangsiz undoshdan oldin s aytilsa ham, **z** yoziladi.

Ss-Ss harfi. Bu harflarning katta va kichik shakllari keyingi harfga pastki qismidan tutashtiriladi: S S s s
sotib olmoq, sug‘urta, sanoat, savdo, so‘m, asos, oson kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Jj-Jj harfi. Katta “J” harfi va kichik “j” harflari o‘rta qismidan boshqa harfga qo‘shiladi: J J j j
1) *jamg‘arma, jarima, jarayon, javobgar, tijorat, rivoj, jahon* kabi so‘zlarda til oldi jarangli qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi;
2) *tiraj, jurnal, garaj, proyektor* kabi o‘zlashma so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Ch ch-Ch ch harflar birikmasi. Bu harflar birikmasining katta va kichik shaklida ham pastki qismidan boshqa harfga qo‘shib yoziladi: Ch Ch ch ch
cheklash, charter, chayqovchi, chakana, ishchan, kuch, achchiq kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz qorishiq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Bobolardan so‘z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug‘ilgan ilk bor
Ko‘ragoniy jadvallarida.
Qotil qo‘li qilich soldi mast,
Quyosh bo‘lib uchdi tilla bosh.
Do‘stlar, kokda yulduzlar emas,
U, Ulug‘bek ko‘zidagi yosh.
Yerda qolgan o tanim manim
O‘zbekiston, Vatanim manim.

K‘oz oldimda kechar asrlar,
Ko‘z-ko‘z etib nuqsu chiroyin.
Sarson o‘tgan necha nasllar,
Topolmasdan tug‘ilgan joyin.
Amerika-sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash‘ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

K‘op jahongir ko‘rgan bu dunyo,
Hammasiga guvoh-yer osti.
Lekin, do‘stlar, sh‘er ahli aro
Jahongiri kam bo‘lar rosti.
Besh asr kim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir she‘r.
Temur tig‘i etmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so‘zladim, ammo
Bir zot borkim, baridan suyuk:
Buyuklarga baxs etgan daho,
Ona xalqim, o‘zingsan buyuk
Sen o‘zingsan, eng so‘nggi nonin
O‘zi emay o‘g‘liga tutgan.
Sen o‘zingsan, farzandlar shonin
Asrlardan opichlab o‘tgan.
Ona xalqim, jon-tanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Topshiriqlar:

1. Quyidagi so‘zlarga “ch” harfiy birikmasini qo‘yib ko‘chiring.
Achchiq, achinmoq, bachkana, garchand, echim, yog‘och, zirapcha, ilgich, inchunin, ishonch, kashnich, ko‘chat, lochin, chinakam, chamanzor, ta‘sirchan, sochiq, pomeschchik, pichan, ocherk.
2. “Gg-Kk, Zz-Ss, Jj-Ch ch” harflarining bosma, yozma, katta va kichik shakllarini yozib mash qiling.

6-mavzu: G'g'-Qq, Xx-Hh, Rr-Ll harflari imlosi

G'g'-G'g' harfi. Katta "G'" harfi va kichik "g'" harflari o'rtta qismidan keyingi harfga o'tiladi: G' G' g' g'

g'azna, ro'zg'or tog', g'oz kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangli sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Qq-Qq harfi. Lotin alifbosidagi katta "Q" harfi pastki qismidan ilmog'i orqali, kichik "q" harfi esa o'rtta qismidan keyingi harfga tutashtiriladi: Q Q q q

qarz, qo'shma korxonona, qimmatbaho, qo'shimcha, qirq, aql, haqiqiy kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz portlovchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Xx-Xx harfi. Lotin alifbosidagi "X" harfi, kirill alifbosidagi "X" harfiga o'xshash. Katta va kichik shakllari pastki tugallanish qismidan keyingi harfga tutashtiriladi: X X x x

xarajat, xalqaro, xolding, xaridor, axborot, baxt kabi so'zlarda chuqur til orqa jarangsiz sirg'aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Hh-Hh harfi. Lotin alifbosidagi "H" harfining katta bosma va yozma shakllari kirill alifbosidagi "Н" harfiga o'xshaydi. Yozma katta "H" va kichik "h" harflari keyingi harfga pastki tugallanma qismidan qo'shib yoziladi: H H h h

hamkorlik, hususiyalashtirish, hukumat, hisob-kitob, hosil, bahor, nikoh, isloh kabi so'zlarda jarangsiz sirg'aluvchi bo'g'iz undoshini ifodalash uchun yoziladi.

Rr-Rr harfi. Bu harfning katta "R" va kichik "r" harfi ham boshqa harfga pastki tugallanish qismidan qo'shiladi:

R R r r

real baho, remoliyalashtirish, raqobat, rentabellik, bor, agrar, aksiyador kabi sozlarda til oldi ovozdor titroq undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Ll-Ll harfi. Lotin alifbosidagi "L" harfining yozma va bosma shakli kirill alifbosiga o'xshash emas. Katta "L" harfi va kichik "l" harfi keyingi harfga pastki tugallanma qismidan qo'shib yoziladi: L L ll ll

litsenziya, lizing, limit, lombard, lotoreya, loyiq, iloj, xil, mahal kabi sozlarda sirg'aluvchi ovozdor yon undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,
O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushti.
Har uchragan nokasu nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g‘azabga to‘lib
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo‘lib
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘shal samanım manım,
O‘zbekiston, Vatanım manım.

Toleingda bor ekan yashash,
Goh qon ichding, gohida sharob.
Etmoq bo‘lib yurtim xomtalash,
Bosh ustingga keldi inqilob.
Chora istab jang maydonidan
Samolarga uchdi unlaring,
Shahidlarning qirmiz qonidan
Alvon bo‘ldi qora tunlaring.
Qonga to‘lgan kafanim manım,
O‘zbekiston, Vatanım manım.

Lekin oftob poymol o‘lmas,
Kavaklarda qolmas oy nuri,
Odil hakam-Haq bor, beg‘araz,
Mazlumlarning buyuk g‘amxo‘ri.
Qilich serpab tole tongida
O‘zligingni tanib qolding sen.
O‘g‘lonlarning qatra qonida
O‘zbekiston nomin olding sen.
Nomi qutlug‘ gulshanim manım,
O‘zbekiston, Vatanım manım.

Tinch turarmi bu ko‘hna olam,
Tinch turarmi dog‘uli zamon.
Oromingni buzdi sening ham
Fashist degan vahshiy olomon.
Qonim oqdi Dantsigda manım,
Sobir Rahim yiqilgan chog‘da.
Lekin, yurtim, kezoimas g‘anim.
O‘zbekiston atalgan bog‘da.
Sensan nomus va sha‘nim manım,
O‘zbekiston, Vatanım manım.

Topshiriqlar:

1. Tarkibida g‘ harfi bo‘lgan quyidagi so‘zlarni ko‘chiring.

Bag‘ishlov, bag‘oyat, dimog‘, yog‘upa, jamg‘arma, zo‘rg‘a, yig‘uvchi, zo‘rg‘a, yig‘uvchi, lolaqizg‘aldoq, nag‘ma, olag‘ovur, tag‘in, g‘aroyibot, g‘azna, g‘alla, qurg‘oq, quvg‘in, o‘g‘il, o‘chirg‘ich, yarog‘, sho‘ng‘imoq.

2. “G‘g‘-Qq, Xx-Hh, Rr-Ll” harflarining bosma, yozma, katta va kichik shakllarini yozib mashq qiling.

7-mavzu: Mm-Nn, Yy-Ng ng, Sh sh harflari imlosi

Mm-Mm harfi. Kirill alifbosidagi “M” harfiga o‘xshash bo‘lib, yangi alifbodagi katta va kichik harflar pastki tugallanish qismi orqali keyingi harfga tutashtiriladi: M M m m
milliy pul, monopoliya, moliya, manfaatdor, mablag‘, tomon kabi so‘zlarda ovozdor lab-lab burun undoshini ifodalash uchun yoziladi.

Nn-Nn harfi. Lotin alifbosidagi katta “N” va kichik “n” harfi keyingi harfga pastdan tutashtiriladi: N N n n

1) *nazorat, naqd, narxnoma, narx-navo, natija, bank, oltin* kabi so‘zlarda til oldi ovozdor burun undoshini ifodalash uchun yoziladi;

2) *jonbozlik, shanba, yonma-yon* kabi so‘zlarda **n** tovushi ba‘zan **m** aytilsa ham, **n** yoziladi.

Yy-Yy harfi. Bu harf kirill alifbosida mavjud bo‘lgan “e”, “yo”, “yu”, “ya” harflari ifodalagan tovush birikmalarini harf birikmalari shaklida-“ye”, “yo”, “yu”, “ya” kabi ko‘rinishlarda ifodalash uchun qo‘llanadi. Katta “Y” harfi va kichik “y” harflari keyingi harfga o‘rta qismidan tutashtiriladi: Y Y y y

1) *yillik hisobot, yig‘imlar, yevro, yechim, tayyor, tuy, yulduz, dunyo* kabi so‘zlarda til o‘rta sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi;

2) ammo rus va evropa tillaridan o‘zlashgan ba‘zi so‘zlarni yozishda “ya” o‘rnida “a”, “yu” o‘rniga “u”, “yo” o‘rnida “o” qo‘llaniladi: *kalkulator, akkumulator; valuta, yuklama; yozuvchi, dunyo.*

Ng ng-Ng ng harflar birikmasi. Kirill alifbosida bu harf birikmasi mavjud emas. Lotin alifbosidagi “ng” harf birikmasi bir-biridan ajratilib, satrdan-satrga ko‘chirilmaydi: Ng Ng ng ng
tanga, tenglik, yangi, singil, ming, ko‘ngil kabi so‘zlarda til orqa ovozdor burun tovushini ifodalash uchun yoziladi.

Sh sh-Sh sh harflar birikmasi. Kirill alifbosida bu harf bir harf bilan berilar edi. Bu harflar birikmasi lotin alifbosida alohida “se” va “he” harflarini ifodalaydi. “Sh” harflar birikmasi “h” harfi orqali pastki tugallanma qismidan keyingi harfga qo‘shib yoziladi: Sh Sh sh sh

shaxsiy sug‘urta, shartnoma, shamol, tosh, ishq kabi so‘zlarda til oldi jarangsiz sirg‘aluvchi undoshni ifodalash uchun yoziladi.

Sh harflari ikki tovushni ifodalasa, ular orasiga ’ tutuq belgisi qoyiladi: Is’hoq, as’hob kabi.

Yonma-yon keladigan undoshlarning imlosi:

1. *Samarqand, do‘st, g‘isht past, artist* kabi so‘zlarda d, t tovushi ba‘zan aytilmasa ham, yoziladi;

2. *kilovatt, kongress, kilogramm, metall* kabi o‘zlashma so‘zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so‘zga xuddi shu tovush bilan boshlanadigan qism qo‘shilsa, so‘z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *kilogramm+mi=kilogrammi, metall+lar=metallar* kabi.

’-tutuq belgisi:

1. *a‘lo, e‘lon, ba‘zan, me‘mor, she‘r, fe‘l, Nu‘mon, e‘tiqod, ma‘yus, shu‘la, ta‘zim* kabi o‘zlashma so‘zlarda unli dan keyin shu unli tovushning cho‘ziqroq aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi; *mo‘tadil, mo‘jiza* kabi so‘zlarda **o‘** unlisi cho‘ziqroq aytilsa ham, tutuq belgisi qo‘yilmaydi:

2. *san‘at, mas‘ul, qat‘iy* kabi o‘zlashma so‘zlarda unli dan oldin shu unli oldingi undosh tovushdan ajratib aytilishini ifodalash uchun qo‘yiladi.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.
U sen eding, o, dehqon yurtim,
Turar eding yalangto'sh, yayov.
Tashqarida izillar yomg'ir,
Kir, bobojon, yayragil bir oz.
Deding:-Paxtam, qoldi-ku axir,
Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.
Ketding, umri mahzanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,
Farg'onada balki, balqarsan.
Balki chiqib oqargan toqqa,
Cho'pon bo'lib gulxan yoqarsan.
Balki ustoz Oybekdek to'lib
Yozajaksan yangi bir doston.
Balki Habib Abdulla bo'lib,
Sahrolarda ochajaksan kon.
Tuproq'i zar, ma'danim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,
Fazolarga qo'ysang ham qadam,
O'zligingni unutmang aslo,
Unutmang hech, onajon o'lkam.
Bir o'g'lingdek men ham bu zamon
Kechmishingni qildim tomosha.
Iqbolingni ko'roldim ayon
Istiqlolning ufqlari osha.
Iqboli hur, sho'x-shanim manim.
O'zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,
Zavol bilmas shu yoshing bilan.
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,
Do'stu yoring, qardoshing bilan.
Asrlarning silsilasida
Boqiy turgay koshonang sening.
Ulug' bashar oilasida
Mangu yorug' peshonang sening.
Mangu yorug' maskanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Topshiriqlar:

1. “Mm-Nn, Yy-Ng ng, Sh sh” harflarining bosma, yozma katta va kichik shakllarini yozib mashq qiling.

2. Y undoshi ishtirokida 20 ta so‘z yozing.

3. Quyidagi so‘zlarga “sh” harfiy birikmasini qo‘yib ko‘chiring.

Ayqash-uyqash, ishbilarmon, ishlov, uyushma, aralash, bag‘ishlov, beshikast, go‘sh, darvesh, dilkash, qish, yomg‘irpo‘sh, yosh, yo‘nalish, kashta, shamsiya, shamshir, shartnoma, shahodatnoma, chorshanba.

4. Quyidagi so‘zlarga “ng” harfiy birikmasini qo‘yib ko‘chiring.

Tanga, gung, dakang, diltang, yog‘ingarchilik, jang, zarang, ingolyator, ingliz, ingichka, keng, kengash, lizing, meningit, nahang, posangi, singil, sterling, tengdosh, tenglama.

8-mavzu: Asos va qo‘shimchalar imlosi

Qo‘shimcha qo‘shilishi bilan so‘z oxiridagi unli o‘zgaradi:

1) a unlisi bilan tugagan fe‘llarga **-v, -q, -qi** qo‘shimchasi qo‘shilganda **a** unlisi **o** aytiladi va shunday yoziladi: *to‘la-to‘lov, o‘lcha-o‘lchov, sina-sinov, aya-ayovsiz* kabi.

2) i unlisi bilan tugagan ko‘pchilik fe‘llarga **-v, -q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **u** aytiladi va shunday yoziladi: *o‘qi-o‘quvchi, sovi-sovuq* kabi. Lekin **i** unlisi bilan tugagan ayrim fe‘llarga **-q** qo‘shimchasi qo‘shilganda bu unli **i** aytiladi va shunday yo‘ziladi: *og‘ri-og‘riq*.

Eslatma:

1. undosh bilan tugagan barcha fe‘llarga **-uv** qo‘shiladi: *ol-oluv, yoz-yozuv* kabi;

2. undosh bilan tugab, tarkibida u unlisi bor fe‘lga **-uq** qo‘shiladi: *yut-yutuq*.

3. k, q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, *bek, yoq* kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *yaxshiroq-yaxshirog‘i, kubok-kubogi, bek-begi* kabi. Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli ko‘pchilik so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ravnaq-ravnaqim, ishtirok-ishtiroki, huquq-huquqim, erk-erki* kabi.

Erkin Vohidov

O'zbekim

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Qo'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Forob avlodidan,
Asli nasli balki O'zluq,
Balki Tarxon, o'zbekim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan
O'ynatib shamshirlarin
Necha qoon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog'
Chingiz Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki taroj,
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen-Muqanna, sarbador-sen,
Erksevar qon, o'zbekim

Sen na zardusht, sen na buddiy,
Senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk-
Qo'ydi narvon, o'zbekim.

Mir Alisher na'rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shohu sulton, o'zbekim.

Ilmu she'rda shohu sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zoru nolon o'zbekim.

Topshiriqlar:

1. "K" va "Q" harfi bilan tugagan quyidagi so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shing.
Agrotexnik, akademik, bank, darak, uzuk, bitik, jikkak, zambarak, ziyrak, ilk, kichik, kaltak, kiyik, koptok, nozik, tank, tek, bodroq, buyruq, butoq, zavq, iliq, yo'q, mantiq, maroq, nifoq, ovloq, qattiq, pichoq, sobiq.
2. Bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

9-mavzu: So'z yasalishi

O'zbek tilida iqtisodiy so'z va terminlar quyidagi qo'shimchalar orqali hosil bo'ladi:
-chi affiksi ishtirokida.

O'zbek tilida juda faol bo'lgan -chi qo'shimchasi birinchi galda, turli kategoriyalarga oid shaxs nomlarini yasab keladi. Iqtisodiy terminologik tizimida iqtisodning biror sohasida ish olib boruvchi shaxs ma'nosidagi ko'plab terminlarni yasab keladi. Masalan, *iqtisodchi, xazinachi, saralovchi, ijarachi, icte'molchi, soliqchi, ta'minlovchi, pudratchi, sanoatchi, hisobchi, nazoratchi, moliyachi, omonatchi, raqobatchi, buyurtmachi, kafolatlovchi* va boshqalar.

-ma affiksi ishtirokida.

Ma'lumki, -ma affiksi o'zbek tilida xilma xil ma'noni ifodalovchi leksemalar yasaydi. Uning ayrimlari terminologik tizimlarda birmuncha faol ekanligini qator ilmiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Bu affiks yordamida, garchi kam miqdorda bo'lsa ham, har holda ayrim iqtisodiy terminlar yasalganki, quyidagi misollar fikrimizni tasdiqlay oladi: *g'amlama, ustama, uyushma, birlashma, tuzilma, buyurtma, bo'linma, undirma.*

-kor affiksi ishtirokida.

Mazkur affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasasa (*paxtakor, g'allakor* kabi), iqtisodiy terminologik tizimda mavhum otlarga qo'shilib ulardan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasaydi: *chorakor, tadbirkor, tejamkor, sohibkor* va b.

-dor affiksi ishtirokida.

Bu affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs nomini hosil qiladi. Masalan: *mulkdor, xaridor, qarzdor, nasiyador, sarmoyador, hissador* va b.

-noma affiksi ishtirokida.

Bu affiks iqtisodiy terminologik tizimda asosdan anglashilgan narsani ifodalovchi matn, xat va shu kabilarni bildiradi. Masalan: *omonatnoma, shartnoma, ahdnoma, yo'riqnoma, ruxsatnoma, so'rovnoma, topshiriqnoma.*

-ot (-at, -yot, -yat) affiksi ishtirokida.

Aslida arabiy leksemalar tarkibidagina lug'aviy birliklarni yasab kelgan mazkur so'z yasovchi qator terminologik tizimlarda bir qadar faolligi bilan ishtirok etib kelmoqda. Buni quyidagi iqtisodiy terminlar misolida yaqqol ko'rish mumkin: *taqsimot, hisobot, iqtisodiyot, qadriyat, ta'minot, mahsulot, raqobat* va b.

-xona affiksi ishtirokida:

bojxona, zarbxona.

-lik affiksi ishtirokida.

O'zbek tilshunosligida mazkur affiksning so'z yasash xususiyatlari xususida qator maqolalar, hatto nomzodlik dissertatsiyasi ham himoya qilingan. Bu ishlarda uning asosiy vazifalaridan biri mavhum otlar yasashdan iborat ekanligi alohida ta'kidlangan. Iqtisodiyot ham ko'proq abstrakt tushunchalar bilan ish ko'rganligi boisidan uning terminologik tizimida -lik affiksi yordamida ko'plab terminlarning yasalganligini quyidagi misollar yaqqol tasdiqlay oladi: *taxchilik, tanqislik, mulkchilik, foydalilik, boqimandalik, manfaatdorlik, mahsuldorlik, rentabellik, xo'jalik, ustuvorlik, samaradorlik, yetuklik, alohidalik, mustaqillik.*

-be affiksi ishtirokida:

behisob, bebaho, bepul, befoyda, bevosita.

-siz affiksi ishtirokida:

hisobsiz, bahosiz. -be affiksi bilan -siz affiksi sinonim holda qo'llangan: *behisob-hisobsiz.*

-xo'r affiksi ishtirokida.

Aslida fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan yaxlit leksemalar tarkibida mavjud bo'lgan mazkur affiks hozirgi bosqichda ko'plab asosdan anglashilgan narsani doim iste'mol qiluvchi, shuni yaxshi ko'ruvchi ma'nosidagi shaxs nomlarini yasab kelganki, u iqtisodiyot terminologiyasida ham qator terminlar tarkibida o'z "vazufa"sini ado etib kelmoqda. Quyida keltirilgan misollar shundan dalolat beradi: *foydaxo'r, sudxo'r, nafaqaxo'r, merosxo'r.*

Hozirgi iqtisodiyot terminologiyasida, qayd etilgan affikslardan tashqari, garchi kam miqdorda bo'lsa-da, yana ayrim affikslar ishtirokida terminlar hosil qilingan.

-m (-im) affiksli terminlar ishtirokida:

boqim, bitim, kirim, chiqim.

-v (-ov) affiksli terminlar ishtirokida:

to'lov, o'lchov.

-q (-iq) affiksli terminlar ishtirokida:

soliq, sotiq.

-gar affiksli terminlar:

savdogar.

-sh (-ish) affikslar ishtirokida:

Hozirgi o'zbek tilida, xususan, uning terminologik tizimlarida -sh (-ish) affiksi faollashib ketganligi leksilogiya, terminologiyaga bag'ishlangan qator tadqiqotlarda alohida ta'kidlangan. Ularda bayyon etilgan fikrlarning qay darajada to'g'ri va haqli ekanligini faktlar ham yaqqol tasdiqlay oladi. Chunki o'zbek tilining iqtisodiy terminologiyasida mazkur affiks yordamida hosil qilingan yuzlab terminlar o'z vazifasini bajarib kelmoqda. Masalan: *undirish, cheklash, himoyalash, jilovlash.*

Erkin Vohidov

O'zbekim

Mirza Bobur-sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.

She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira,
Siyam tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbekim.

Yig'ladi furqatda Furqat
Ham muqimlikda Muqim,
Nolishingdan Hindu Afg'on
Qildi afg'on, o'zbekim.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmonning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shoming
Shu'la afshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul,
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahonu
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoyidek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay, boshda do'ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sutu tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.

Topshiriqlar:

1. Matnlardagi yasama iqtisodiy terminlarni aniqlang va ajratib yozing.
Bozorchi-bu bozorga savdo-sotiq ehtiyoji bilan kelgan kishi (BINA 7-b).
Shu jihatdan sudxo'rlik rivoj topadi, ya'ni qarz beruvchi kishi bergan pulini kafolatlovchi va pulini qadrsizlatib ketishdan saqlash yolini qidira boshladi (Mulkdor, 153).

Ulgurji-vositachi tuzilma bozor muassasalarning eng muhimlaridan biridir (Mulkdor, 48,163).

Jamg'armalar va iste'moldan voz kechish o'rtasidagi o'zaro bog'lanish unchalik yaqqol ko'rinmaydi (BINA 153-b).

Qonunchilik qoniqtirilmagan holati tadbirkor tashabbusini susaytiradi (Moliya, 27-b).

Boshqa yurtdan tovar olib keluvchiga baraka va ehtiyotkor deyilgan (Mulkdor, 153).

Ma'lumki, mulkdor topgan mulkning halol bo'lishi uchun zakot bermog'i shart (Mulkdor, 153).

Sotuvchi va xaridorning iqtisodiy ahvoli bozor kon'yukturasiga, bozorning joriy holatiga bog'liq bo'ladi (Iq.N, 76).

Tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar tez daromadlaridan foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibda qilmoq kerak (IK, 16).

Shunga muvofiq ravishda amaldagi yo'riqnomalar, qoidalar ham tez o'zgarib turibdi (Hur. 17,12,97).

Kafolatnoma kredit oluvchi xorijiy xaridor, jismoniy shaxs va xususiy-huquqiy shaxs bo'lgan taqdirda beriladi (Kredit, 100-b).

Mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, shunchalik mehnat unumi yuqorilashadi (IN,77).

Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma jabhalarini, jumladan, qishloq xo'jaligini ham o'z ichiga oladi (IN,338).

Raqobat basma-baslikka bellashuv, kim o'zadi qabilida kurashuv demakdir (BIA, 275-b).

Bojxona—chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasi (BU 15-b).

Rentabellik amalda foydalilikni bildirib, korxonalar va tarmoqlar faoliyatining asosiy mezonlaridan biridir (Boz. Iq. 84).

Agar taqchilik hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatining 3-5 foiziga teng bo'lib, undan oshib ketmasa, bu iqtisodiyot uchun normal hol hisoblanadi (BIA, 223-b).

Xuddi shuning uchun ham mamlakatimizda bolalarning ilm olishlari bepul amalga oshiriladi, negaki vaqt g'animat, uni befoyda o'tkazmaslik kerak (Mulkdor, 38).

Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri, ochiq daromad yoki mulkdorlarga solinadi (IQN 92-b).

Naqd pulsiz valuta to'lovlari hujjatlarning quyidagi turlari . . . (Bux.h., 86).

Ishsiz deganda aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish reja olmasdan, mehnat rezerv armiyasiga aylangan qismi hisoblanadi (BIA, 321-b).

Davlat budjeti defitsitsiz qabul qilinar edi (BINA, 13-b).

Islom qonuniga ko'ra sudxo'rlik harom hisoblanadi (Mulkdor, 38).

Buning mazmuni shuki, oxiratga olib ketadigan savdo ish shudir, ya'ni o'ziniki, demakdir, chunki o'zidan keyin qoldirgan mol-mulk merosxo'rga qoladi (Mulkdor, 38).

Davlat yoki boshqa bировga boqim bo'lish yo'qola boshladi (Mulkdor, 38).

Qarz oluvchining to'lov qobiliyatsizligi yuz bergan (Mulkdor 38-b).

To'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, kirim-chiqim orderi, hisob-kitob cheki tashqi hujjatlar hisoblanadi (Bux.h. 87).

Soliqlar ikki vazifani o'taydi (Iq.N., 91).

Savdo-sotiq yoli inson hayotidagi yagona tovar almashinuvi yoli bo'lib qolgan (Mulkdor, 38).

Savdogar ayollarimizning bola-chaqalarini o'z holiga qo'yib, xorijga tijoratga borishlari-yu, bozorlarda savdo qilib o'tirishlariga qanday qaraysiz (Mulkdor, 38).

Amalda rivojlantirish eng muhim ho'jalik mexanizmining dastagi sifatida asosiy zveno bo'lib hisoblanar edi (BINA, 124-b).

Xalqaro savdoni erkinlashtirishning uzoq jarayoni davomida ko'pchilik rivojlangan sanoat mamlakatlari o'zlarining ta'rif cheklashlarini pasaytiradilar (BINA, 156-b).

2. Quyidagi soʻzlarga *-chi, -ma, -kor, -dor, -noma, -ot, -ik, gar* qoʻshimchalaridan birortasini qoʻshib koʻring, oʻzardagi oʻzgarishni izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Iqtisod, bozor, xizmat, jamgʻar, undir, usta, tadbir, xam, chora, qarz, mulk, xissa, xabar, taklif, kafolat, taqsim, iqtisodiy, xisob, tanqis, mustaqil, mulkchi, savdo.

UMUMIY MAVZU

10 mavzu: Qo'shib yozish imlosi

So'zlarning o'zaro birikuvi natijasida qo'shma so'zlar hosil bo'ladi. Ular imlo qoidalariga ko'ra qo'shib, ajratib yoki chiziqcha bilan yoziladi.

Qo'shib yoziladi:

1. Noma, bop, kam, umum, sifat, talab, kam, xona, mijoz, ham, baxsh kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *shartnoma, talabnoma, ommabop, kamquvvat, umumdavlat, umumxalq, devsifat, suvtalab, qabulxona, sovuqmijoz, hamkorlik, orombaxsh.*

2. -(a)r (inkor shakli -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *ishyoqmas, o'rinbosar, otboqar, qushqo'nmas.*

3. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar: *pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la), bizbizak (biz-biz+ak).*

4. Narsani (predmetni) boshqa biror narsaga nisbatlash (qiyoslash), o'xshatish yo'li bilan bildiruvchi qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *sheryurak, bodomqovoq, karnaygul, otquloq, devqomat, oybolta.*

5. Narsa, uning rangi, mazasi, o'zidagi biror narsasi va shu kabi belgilari asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *olaqarg'a, mingoyoq, achchiqtosh.*

6. Narsaning biror maqsad, ish uchun mo'ljallanganligini bildiruvchi qo'shma otlar: *tokqaychi, qiymataxta, ko'zoynak, oshrayhon.*

7. Narsani joyga nisbat berish asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *tog'olcha, suvilon, qashqargul, cho'yalpiz.*

8. Marosim, afsona, kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar: *kelintushdi, qoryog'di, Ochildasturxon, Urto'qmoq.*

9. Qaratuvchili birikmaning bir so'zga aylanishi bilan yuzaga kelgan qo'shma otlar: *olmaqoqi, mingboshi, so'zboshi.*

10. Ikkinchi qismi turdosh ot bilan yoki *obod* so'zi bilan ifodalangan joy nomlari: *Mirzacho'l, Sirdaryo, Kosonsoy, Yangiobod, Xalqobod, Yangiyo'l.*

11. Rus tilidan aynan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yoli bilan hosil qilingan qo'shma so'zlar: *fotoapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, radiostansiya, suvosti, bayramoldi.*

12. Qisqartmalarning barcha turlari va ularga qo'shiladigan qo'shimchalar qo'shib yoziladi. SamDU, O'zMU.

13. Bir tovush ikki va undan ortiq tovush tarzida aytilsa, bunday holat harfni takror yozish bilan ko'rsatiladi: *ufff, yo'o'q, nimaa* kabi.

Topshiriqlar:

1. Qo'shib yoziladigan quidagi so'zlarning har biriga bittadan gap tuzing: *bojxona, arznoma, shartnoma, talabnoma, kamxarj, umumdavlat, o'rinbosar, so'zboshi.*

2. Rus va boshqa tillardan o'zlashtirish yoki so'zma-so'z tarjima qilish orqali yasalgan 20 ta qo'shma so'zni (iqtisodiy) yozing va ularning har biriga gap tuzing.

11 - mavzu: Ajratib yozish imlosi

Ajratib yoziladi:

1. Ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari: *Ko'hma Urganch, O'rta Chirchiq, O'rta Osiyo*.

2. Qo'shma fe'lining qismlari: *sarf qil, sotib ol, olib kel, tamom bo'l, ta'sir et, olib chiq*.

3. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan: *so'rab qo'y, ko'ra qol, aytib ber, bera boshla, ketgan ekan, ketgan edi* kabi. Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qismlar qo'shib yoziladi: *borooladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan), aytaver (ayta ber)*.

4. Ko'makchilar: *borgan sari, soat sayin, kun bo'yi, bu qadar* kabi. Lekin bilan ko'makchisining *-la* shakli, *uchun* ko'makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun*.

5. Yonma-yon kelgan ikki qisqartma ajratib yoziladi: O'zXDP MK (O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi markaziy kengashi).

6. *Hamma, har, hech, bir, qay, u, bu, shu, o'sha* so'zlari o'zidan keyingi yoki oldingi so'zdan: *hamma vaqt, har kim, hech qaysi, qay kuni, u erda, shu yoqdan, o'sha yoqqa*. Lekin *birpas, biroz, birato'la, birvarakayiga, birmuncha, buyyon* so'zlari qo'shib yoziladi. Shuningdek, *qay so'zi yoq, yer* so'zlari bilan ishlatilganda, bir y tovushi tushsa, bu so'zlar qo'shib yoziladi: *qaerga, qayoqqa*.

7. Sifat oldidan kelib, belgining ortiq yoki kamligini bildiradigan *to'q, jiqqa, tim, liq, lang, och* kabi so'zlar: *to'q qizil, jiqqa ho'l, tim qora, liq to'la, lang ochiq, och sariq*.

8. Murakkab son qismlari: *o'n bir, besh yuz, qirq ming olti yuz bir, bir ming yetti yuz sakson beshinchi*.

9. *Yildan yilga, tomdan tomga* kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar.

10. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi *ko'pdan ko'p, yangidan yangi, qizigandan qizidi, tekidan tekin, ochiqdan ochiq* kabilar.

11. Izofali birikmalar ajratib yoziladi. Bunda izofa undosh bilan tugagan so'zlarga **i** shaklida, unli bilan tugagan so'zlarga **yi** shaklida qo'shiladi: *nuqtayi nazar, tarjimayi hol, dardi bedavo* kabi. Lekin izofa yozilmaydigan so'zlar, shuningdek, qismlaridan biri yoki har ikkisi o'zbek tilida ishlatilmaydigan so'zlar qo'shib yoziladi: *dardisar, gulbeor (guli beor)* kabi.

Topshiriqlar.

1. Ajratib yoziladigan 20 ta iqtisodiy so'zni toping.

2. *Bir xil, sarf qil, sotib ol, hamma vaqt, tekidan tekin, olti yuz, tarjimai hol* kabi so'zlarning ajratib yozilishini izohlang va har biriga bittadan gap tuzing.

12 mavzu: Chiziqcha bilan yozish imlosi

Juft so'z va takror so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *mehr-shafqat, kecha-kunduz, ikir-chikir, taq-tuq, bitta-bitta, baland-baland, chopa-chopa, ishlay-ishlay, hamma-hammasi, ich-ichidan, o'n-o'n besh, don-dun, mayda-chuyda, oz-moz, ming-ming (ming-minglab), oz-moz, asta-sekin, duk-duk, baland-baland, bitta-bitta* kabi.

Eslatma:

1. Juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar ham chiziqcha bilan yoziladi: *xayr-xo'shlamoq, baxt-saodatli* kabi.

2. Juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft soz qismlari ajratib yoziladi: *kecha-yu kunduz (kecha-kunduz), do'st-u dushman (do'st-dushman)* kabi.

3. Etakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda bo'lsa, chiziqcha bilan yoziladi: *yozdi-oldi, uxlabman-qolibman, borasan-qo'yasan* kabi.

4. Belgini kuchaytiruvchi *qip qizil, yam-yashil, to'ppa-to'g'ri, bab-baravar, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi* kabi so'z shakllari shiziqcha bilan yoziladi (lekin *oppoq* so'zi qo'shib yoziladi).

5. So'zning **-ma, -ba** yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *dam-badam, rang-barang, uyma-uy, ko'chama-ko'cha* kabi. Lekin mustaqil ishlatilmaydigan qism qatnashsa, bunday so'zlar qo'shib yoziladi: *darbadar, ro'baro'* kabi.

6. Rus tilidan aynan yoki so'zma-so'z tarjima qilish yoli bilan olingan so'zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *kilovatt-soat, unter-ofitser* kabi.

7. **-chi, -a, (-ya), -ku, -u, (-yu), -da, -e, -ey (-yey)** yuklamalari chiziqcha bilan yoziladi: *boraylik-chi, sen-chi, sen-a, kutaman-a, bola-ya, mingta-ya, keldi-ku, kelgan-u, yaxshi-yu, yaxshi-da, qo'y-e, yashang-e, o'g'lim-ey, keldi-yey* kabi. Ammo **-mi, -oq (-yoq), -ov (-yov), -gina (-kina, -qina)** yuklamalari o'zidan oldin kelgan so'zga qo'shib yoziladi: *keldimi, keliboq, o'ziyoq, ko'rganov, mengina, qo'shiqinna, ko'rdiyov* kabi.

8. Tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-nchi** qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: *7-sinf, 5-"A" sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o'quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi. Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *X sinf, XXI asr* kabi.

Topshiriqlar:

1. Quyidagi so'zlarning har biriga 2 tadan gap tuzing *hisob-kitob, narx-navo, eksport-import, xavf-xatar, xayr-sadaqa, xayr-ehson, pul-kredit, so'm-kupon, bosqichma-bosqich*.

2. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, bahsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan quyidagi so'zlarni yodda tuting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bojxona, elchixonona, mehmonxonona, talabnoma, arznoma, shahodatnoma, shartnoma, ruxsatnoma, zinapoya, sholipoya, imoratbop, sahnabop, xushbo'y, xushfe'l, xushxulq, hamkasb, hamkurs, hamdo'stlik, hamyurt, shifobaxsh, orombaxsh, kamxarj, kamchiqim, kamhosil, umumdavlat, umumjahon, umumnazariy, misrang, lolarang, sovuqmijoz, maymunisifat, devsisfat, savobtalab, shifotalab.

3. Rus tilidan o'zlashtirilgan yoki so'zma-so'z tarjima qilish orqali hosil bo'lgan qo'shma iqtisodiy so'zlarga misollar toping.

4. Matnni kirill alifbosiga aylantiring.

ZAMONAVIY KADRLAR-TARAQIYOTIMIZNING MUHIM OMILIDIR

Mamlakatimizda hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdirida, odamlar dunyoqarashining o'zgarishida, buyuk davlat barpo etishdek oliyjanob orzuimizning ro'yobga chiqishida zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayorlash muhim ahamiyat kasb etadi, dedi Prezident. Ana shu maqsadda shu yil boshida davlat komissiyasi tuzilib, unga respublikada kadrlar tayorlash bo'yicha milliy dastur ishlab chiqish vazifasi topshirilgan edi. Bugungi yig'ilishdan maqsad mazkur dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarga munosabat bildirish, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishda unga qanday o'zgartirishlar kiritish haqida komissiya a'zolari, mutaxassislar bilan yana bir karra fikr almashib olishdir.

Dasturda ko'zda tutilgan asosiy maqsad nimadan iborat? Birinchidan, biz erkin, demokratik jamiyat barpo etyapmiz. Bozor munosabatlari hayotimizga teran kirib bormoqda. Ma'naviyatni yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmogda. Qisqacha aytganda, dunyoqarashimiz, hayotimiz o'zgarimoqda. Lekin taassufki, respublikada kadrlar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimida jiddiy o'zgarish ro'y bermayapti. Aslida islohotlarni mana shu sohadan boshlash kerak edi. Bu tizimdagi ishlarimiz hamon eski qolipda davom etmoqda va u hozirgi zamon talablariga mutlaqo mos emas. Shuning uchun bu tizimga tanqidiy nuqtai nazardan baho berishimiz, milliy dasturimizda qanday o'zgarishlarni amalga oshirish lozimligini belgilab olishimiz zarur.

Ikkinchidan, tan olib aytish kerakki, bizda qaror topgan ta'lim-tarbiya tizimi markazdan boshqarilar edi. Shuning oqibati o'laroq, bu ishda turli pala-partishliklarga yol qo'yildi. Xususan,

mohiyati noma'lum bo'lgan sun'iy o'n bir yillik ta'limga o'tildi. Bunda milliy o'ziga xoslik, qadimiy tajriba, an'analar inobatga olinmadi. Mana shu holatning o'ziyoq milliy dastur ishlab chiqish naqadar zarurligini isbotlaydi.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston dunyoga yuz ochdi. Bugun dunyodagi demokratik, mutaraqqiy davlatlar tajribasini o'rganish imkoniyatlari g'oyat keng. Bu borada hech qanday to'siq yo'q. Ular to'plagan tajribaning biz uchun maqbul jihatlaridan foydalanish ham milliy dasturimizda ko'zda tutilmog'i darkor. Eng muhimi, shuni anglab yetishimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'yi-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz o'zgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yolga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor.

Chunki bizning xalqimiz talant va iqtidor jihatidan hech kimdan kam emas. Unga ma'rifatning ravon yollari ochib berilsa, jahonda o'ziga yarasha obro'li o'rinni egallay oladi, dedi Islom Karimov.

13-mavzu: Bosh harflar imlosi

1. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi: Kredit munosabat ikki subekt o'rtasida yuzaga keladi.

2. Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Yorqin Abdullayev, To'lqin Boboqulov, Asilbek Qahramon o'g'li, Navoiy, Furqat, So'fizoda, Mannon Otaboy, Muhammadsharif So'fizoda* kabi.

3. Joy nomlari ya'ni toponimlar bosh harf bilan boshlanadi: *Andijon, Yangiyo'l, Buloqboshi, Naymancha (qishloqlar), Usta Shirin, Chig'atoy, Bodomzor (mahallalar), Zavraq (dara), Yorqoq (yaylov), Pomir, Qoratog', (tog'lar), Uchtepa, Oqtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Turkiya, Hindiston, AQSh (mamlakatlar)* kabi. Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: *Markaziy Qizilqum, Shimoliy Kavkaz* kabi.

4. Yulduz va sayyoralarning oti bosh harf bilan boshlanadi: *Mirrix, Qavs, Hulkar (yulduz va sayyoralarning nomi), Tinchlik dengizi (Oydagi rel'ef nomi)* kabi. Yer, quyosh, oy turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi.*

5. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, shuningdek, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi: *"Dedeman" (mehmonxona), "Anvar" (firma), "Navro'z" (xayriya jamg'armasi), "Kamalak" (matbaa birlashmasi), "G'uncha" (bog'cha), "Botanika" (sanatoriy), "Paxtakor" (stadion), "Qutlug' qon" (roman), "Dilorom" (opera), "Tanovar" (kuy), "Ozodlik" (haykal), "Jasorat" (yodgorlik)* kabi.

6. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navro'z bayrami* kabi.

7. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

8. Boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Mudofaa vaziri, Bosh vazirning o'rinbosari, O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, Yozuvchilar uyushmasi* kabi.

9. Vazirliklar va idoralar, korxonalar va tashkilotlar nomi tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi: *Tilshunoslik instituti, Sog'liqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qo'mitasi* kabi.

10. Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi: *"O'zbekiston Qahramoni" (unvon), "Oltin Yulduz" (medal). Boshqa mukofotlar,*

faxriy unvonlar, nishonlar nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: “Sogʻlom avlod uchun” (orden), “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi” (faxriy unvon), “Matbaa aʼlochisi” (nishon) kabi.

Eslatma:

1. Koʻchirma gapdan keyin kelgan muallif gapining birinchi soʻzi (agar u atoqli ot boʻlmasa) kichik harf bilan yoziladi: *“Bu men”, -qoʻrqibgina javob berdi koʻlaga (O. Yoqubov);*

2. Xatboshiga gapning sanaluvchi qismlari chiqarilganda bunday qismlar oldidan chiziq qoʻyiladi va ular kichik harf bilan yoziladi: *Pul mablagʻlariga quyidagilar kiradi:*

- *kassa;*

- *valuta;*

- *boshqa mablagʻlar.*

3. Gapning qismlari qavsli raqam yoki qavsli harf qoʻyib sanalsa, bunday qismlar ham kichik harf bilan yoziladi:

Kredit shartnomasining asosiy talablariga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kredit maqsadli boʻlishi shart; b) kreditning yigʻindisi aniq belgilangan boʻlishi kerak; c) kredit muddati koʻrsatilishi shart.

Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot boʻlmagan baʼzi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: *AQSh (Amerika Qoʻshma Shtatlari), BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), AES (atom elektr stansiyasi) kabi. Qisqartma tarkibida boʻgʻiniga teng qism boʻlsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: OʻzMU (Oʻzbekiston milliy universiteti), ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti) kabi.*

Topshiriqlar:

1. 20 ta bosh harf ishtirok etgan iqtisodiy mavzudagi gapni gazetalardan toping va koʻchiring.

2. Quyidagi qisqartmalarni toʻliq holiga keltiring: *ToshDTU, ToshDAU, TMI, OʻzMU, SamDU, OʻzDFU, OʻzA “Oʻzbek”, TSHPOTMOJ, OʻzDJTI.*

14-mavzu: Koʻchirish qoidalari

Koʻp boʻgʻinli soʻzning oldingi satrga sigʻmay qolgan qismi keyingi satrga boʻgʻinlab koʻchiriladi: *pul-dor, mab-lagʻ, toʻq-son, iq-tisod, iqti-sod, pax-takor, paxta-kor kabi.*

Tutuq belgisi oldingi boʻgʻinda qoldiriladi: vaʼ-da, maʼ-rifat, mashʼ-al, inʼ-om kabi.

Soʻzning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir harfdan iborat boʻlsa ular quyidagicha koʻchiriladi:

1. Soʻz boshidagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi oldingi satrda qoldirilmaydi: *a-badiy emas, aba-diy, e-shikdan emas, eshik-dan kabi;*

2. Soʻz oxiridagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi keyingi satrga koʻchirilmaydi: *mudofa-a emas, mudo-faa, matba-a emas, mat-baa kabi.*

Oʻzlashma soʻzlarning boʻgʻinlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha koʻchiriladi:

1. Ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda koʻchiriladi: *mono-grafiya, dia-gramma kabi;*

2. Uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga koʻchiriladi: *silin-drik kabi.*

Bir tovushni koʻrsatuvchi harflar birikmasi (**sh, ch, ng**) birgalikda koʻchiriladi: *pe-shayvon, pe-shana, mai-shat, pi-choq, bichiq-chi, si-ngil, de-ngiz kabi.*

Bosh harflardan yoki boʻgʻinga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartmalar, shuningdek, koʻp xonali raqamlar satrdan satrga boʻlib koʻchirilmaydi: *AQSh, BMT, OʻzMU, 16, 355, 2004, XXI kabi.*

Harfdan iborat shartli belgi oʻziga tegishli raqamdan ajratib koʻchirilmaydi: *6-“B” sinfi, V “A” guruhi, 150 gr, 43 ga, 103 m, 25 sm, 95 mm kabi.*

Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomdan ajratilgan holda keyingi satrga ko'chirilmaydi: "Navro'z-92" (*festival*), "O'qituvchi-2003" (*ko'rik tanlov*), "Andijon-9" "Termiz-16" (*g'o'za navlari*), "Boing-767" (*samolyot*) kabi.

D.A. Azizov, K.M. Akbarova kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko'chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy qisqartmalar ham oldingi so'zdan ajratib ko'chirilmaydi.

Topshiriqlar:

1. Bo'gin ko'chirish qoidalariga rioya etilmagan holatlarga misollarni gazetalardan toping (20 ta).
2. Quyidagi matnni ko'chiring va bo'gin ko'chirish qoidalariga rioya qiling.

Milliy iqtisodiyot: Xorij sarmoyasi va qo'shma korxonalar

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvning o'ziga xos va mos yo'lini tanlagan ekan, jahonning istalgan mamlakati bilan hamkorlik olib borish imkoniyatiga ega va jahon bozoriga ochilgan yo'llari yanada ravon bo'laveradi.

Xorij sarmoyasini iqtisodiyot tarmoqlariga jalb qilish kunning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi integratsiyalashuv jarayonida hech qaysi davlat jahon iqtisodiyotidan ayrim holda, tashqi yordamlarsiz, boshqacha aytganda xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas. Rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tarixi ham xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni qayta qurish, modernizatsiyalash va yuksaltirishdagi o'zni nihoyatda katta ekanligini ko'rsatadi.

Chet el investitsiyalarini jalb qilish va qo'shma korxonalarni tashkil qilish borasida O'zbekiston har tomonlama qulay zamindir. Buning isboti sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Respublikamizda boy va tabiiy xom ashyo salohiyati mavjud. G'oyat boy qimmatbaho, rangli va nodir metallar, barcha turdagi yonilg'i resurslari (neft va gaz kondensati, tabiiy gaz) konlari, ko'plab turdagi mineral xomashyo va binokorlik metallari-bularning barchasi respublikamizda katta hajmdagi ichki va tashqi investitsiyalarni yuksak darajada samarali o'zlashtirish uchun samarali o'zlashtirish uchun muhim asos bo'ladi. O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlar mavjud. Mamlakatimizdagi mineral xomashyo zahiralarning umumiy bahosi 3,3 trillion AQSh dollaridan ziyodroq. Xususan, O'zbekiston strategik xomashyo hisoblanmish paxta tolasi, yoqilg'i energetikasi resurslari, kimyo mahsulotlari, plastmassa ishlab chiqarish bo'yicha nafaqat MDXda balki butun dunyoda ham etakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Respublikamiz zarur mehnat salohiyatiga ega. Shu bilan birga, respublikamizda 8 milliondan ortiq faol yoshdagi aholi mavjud bo'lib mehnatga layoqatli aholi har yili 200 mingdan ortiq kishiga ko'paymoqda. Eng avvalo shuni aytilish kerakki, respublika mehnat salohiyati jihatidan yuksak darajaga ega, mehnat resurslari umumiy va professional ta'lim darajasi yuqori. Ishchi kuchi boshqa davlatlarga nisbatan ancha arzon hisoblanadi (*"Hamkor" gazetasidan 2003 yil 25 dekabr*).

15-mavzu: Matnlar ustida ishlash

Ushbu matnlarni yangi alifoga o'girib yozing.

EXHT OLIY KOMISSARI TOSHKENTDA

Evropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) kam sonli millatlar ishlari bo'yicha oliy komissari Rolf Ekeus 5 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sodiq Safoev bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan bir yuz yigirmadan ortiq millat va elat vakillarining teng huquqliligini ta'minlash, milliy urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirish, ahillik, diniy bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida fikr almashildi.

EXHT oliy komissari O'zbekiston hukumatining bu yildagi sa'y-harakatlariga yuqori baho berib, etnik jihatdan xilma-xil Markaziy Osiyo mintaqasida yashayotgan xalqlar o'rtasidagi birodarlik rishtalarini mustahkamlashda mamlakatimiz rahbari yuritayotgan siyosatning ahamiyati beqiyos ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda, shuningdek, tomonlar O'zbekiston - EXHT hamkorligini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi.

R.Ekeusning O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri R.Jo'raev bilan uchrashuvda mamlakatimizda kam sonli millatlar vakillarining ta'lim olishi, kitoblar, jumladan, darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida gap bordi.

EXHT oliy komissari O'zbekiston Baynalmilal madaniyat markazida bo'lib, ushbu muassasa faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mehmonga mamlakatimizda mavjud bir yuz o'ndan ortiq milliy-madaniy markaz faoliyati, ularning samarali ishlashi uchun yaratilayotgan shart-sharoit, mazkur markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan dastur va loyihalar xususida gapirib berildi.

BIR MILLION TONNA

Zarafshon shahri yaqinida bir oltin saralash majmui qad rostladi. "Amantaytov - Goldfields" O'zbekiston - Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi mahsulot bera boshladi.

Ma'lumki, tabiiy resurslar mamlakat iqtisodiyoti rivojini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Respublikamizning shimoliy hududini o'rab olgan Qizilqum esa bitmas-tugamas boyliklar manbai ekanligi haqida ko'p yozilgan. Bu shunchaki gap emas. Xazinatoparlar buni amalda isbotlamoqdalar.

Istiqoldan keyin Qizilqumda mamlakatning oltin sanoati akademiyasi yaratildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Iqtisodiy islohotlarning amaliy misoli sifatida vujudga kelgan yirik korxonalar soni tobora ko'payib bormoqda. Ulardan biri "Amantaytov-Golfilds" O'zbekiston - Buyuk Britaniya qo'shma korxonasidir.

U Lopro (Britaniya) kompaniyasi va xalqaro moliya korporatsiyasi muassisligida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining bevosita yordamida vujudga keldi. Ko'zda tutilgan maqsad esa Amantaytov, Uzunbuloq Davgiston, Saribotir, Asatovning oltinga boy konlarining o'zlashtirishdi. Ushbu loyihaga muvofiq "Oksus Resorsis korporeyshnl" korporatsiyasi tomonidan umumiy hajmi 164,1 mln. AQSh dollariga investsiyasining 25 mln. dollari ishlab chiqarishga yo'naltirildi.

Korxonalar Zarafshon shahridan 30 km. janubda, Muruntov oltin konidan 20 km. narida bo'y ko'rsatdi. Egallab turgan maydoni shu atrofda joylashgan Muruntov va 2-gidrometallurgiya zavodiga nisbatan ancha ixcham. Ishlab chiqarish bilan bog'liq texnologik jarayonlar ham bir muncha o'zgacha.

Ha, Qizilqum bag'rida yana bir korxon bo'y ko'rsatdi. U 8 yil davomida 240 mln. AQSh dollari miqdorida oltin va kumush sotish imkoniyatiga ega. Chet elliklarning mamlakatimizga qiziqishi va ishonchining yaqqol namunasi bu.

INTERNET TAKOMILI VA MUAMMOLARI

Insoniyat tirik ekan, doimo izlanish, doimo taraqqiyot sari intiladi. Ana shunday taraqqiyot mevalaridan biri - Internet tarmog'idir.

Internet (International Network - xalqaro kompyuter tarmog'i) - bugun butun dunyoni qamrab olgan. Hozirga kelib, Internet dunyoning 150dan ortiq mamlakatida 100 millionlab abonentlarga ega. Har oyda tarmoq ko'lami 7 - 10 foizga ortib bormoqda.

Bu bepoyon kommunikatsion tizim AQSh va sobiq Sovet davlati o'rtasidagi sovuq urush natijasida paydo bo'ldi. Kutilmagan atom hujumida kommunikatsion tizimning buzilishi oldini olish maqsadida AQSh bog'langan kompyuterlar tizimini ishlab chiqdi. Sovet Ittifoqi parchalanib, sovuq urush poyoniga etgach, AQSh bu kommunikatsion tizimni mamlakatdagi universitetlar uchun ochib berdi.

Qachonlardir faqat tadqiqot va o'quv guruhlarigagina xizmat qilgan Internet hozirga kunga kelib, ishlab chiqarish doiralari orasida ham keng tarqalib ulgurdi. Arzon xizmat evaziga (Internet va telefondan foydalanganlik uchun oyma-oy to'lanadigan haqni hisoblamaganda) foydalanuvchilar dunyo mamlakatlarining turli tijorat va notijorat axborot xizmatlariga yo'l topadilar. Internetning erkin kiriladigan arxividan insoniyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladigan axborotlarni-ertangi ob-havo qanday bo'lishi haqidagi ma'lumotdan tortib ilmiy yangiliklargacha topishingiz mumkin. Bundan bir necha yillar ilgari biror ma'lumotga muhtoj bo'lgan odam bir necha kun kutubxonalarning chang bosib yotgan kartotekalarini titib chiqishga majbur bo'lardi. Endi esa Internetning qidiruv darichasiga kerakli so'zni yozib, "sichqon"cha orqali izla, deb buyruq berasiz. Tarmoq dunyoning turli burchaklarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni to'plab chiqarib beradi.

Internetning ommaviy axborot vositalariga ham ta'siri katta. Chunki tizim orqali bir necha soniyalar ichida dunyoning istalgan nuqtasida nima sodir bo'layotgani haqida bilib olishingiz mumkin.

"ERUR SO'Z MULKINING KISHVARSTONI"

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy - dono siyosiy arbob, ulug' mutafakkir olim, xassos rassom, zarif musiqachi, tengi yo'q so'z san'atkori. Madaniyatning u daxldor bo'lmagan biron-bir sohasini topish amri mahol. Alisher Navoiy insoniy fazilatlarining hammasini o'zida mujassam etgan chin inson. U umr bo'yi mash'ala yanglig' yonib yashadi, har bir qadamidan o'chmas iz qoldirdi. Shoir umrining sarhisobi bamisoli cheksiz ummonga o'xshaydi.

Alisher Navoiy adabiy faoliyati o'zbek adabiyoti uchun, ayniqsa, cheksiz ahamiyatga ega. Uning boy adabiy merosida ikki qutb - ikki hodisa alohida ko'zga tashlanib turadi. Birinchidan, eski o'zbek tili hukmron bo'lib kelgan fors tili singari inson tafakkurining mukammal ifoda vositasi ekanligini ko'rsatib berdi. Ikkinchidan, badiiy so'z kamolotining gulto'ji bo'lmish adabiyot XV asrda so'nmaganligini isbotladi, unga hayotiy kuch bag'ishladi. Shoirning har bir g'azali turkiy tilli xalqlar bebaho xazinasining nodir gavharidir. Shu tufayli o'zbek tilida yaratilgan badiiy asarning qiymati bormi-yo'qmi, degan munozaralar Navoiy davridayoq barham topdi. Natijada o'zbek xalqi o'z ma'naviyatini o'z ona tili asosiga qurish uchun keng imkoniyatga ega bo'ldi.

Garchi tarixiy shart-sharoit salohiyatini to'la-to'kis namoyon etishga darhol imkon bermagan ona tili uchun uzoq yillar kurash olib borishiga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, bu kurashda baribir Navoiyning ijodi doimo o'zbek xalqi ilg'or qismi qo'lida bayroq bo'lib keldi. Xalq doimo uni ma'naviy ustoz, do'sti va himoyachisi deb bilib, hikmatli so'zlarini tildan qo'ymadi. U yaratgan qahramonlar - dovyurak Farhod, baxtsiz Majnun, sof muhabbat, sadoqat timsoli bo'lmish Shirin va Layli haqida yangidan-yangi qo'shiqlar ijod etdi.

Biz Alisher Navoiy ijodida ikki jihatni bir-biridan ajrata bilishimiz kerak. Ularning biri - Navoiy o'zidan oldingi adabiy jarayondan meros qilib olgan an'ana bo'lib, bu uning o'z asrining komil farzandi darajasiga ko'tarila olishidir. Ikkinchisi esa uning chinakam daho sifatida o'zbek adabiyoti tarixiga qo'shgan yangiliklarida o'zbek xalqi o'z ma'naviyatini o'z ona tili asosiga qurish uchun keng imkoniyatga ega bo'ldi.

Topshiriqlar:

1. Har bir matnga to'rttadan savol tuzing va yozma javob qaytaring.
2. Matnlardagi iqtisodiy so'zlarni lug'at tarzida yozing va ma'nosini izohlang.

SHARTLI QISQARTMALAR

1. BIA-Yo. Abdullayev. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent, "Mehnat", 1997.
2. BOI-V.A.Chjen. Bozor va ochiq iqtisodiyot. Toshkent, "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1996.
3. Marketing-A.Soliyev, A.Usmonov. Marketing. Toshkent, "O'qituvchi", 1997.
4. MA-S.S.G'ulomov. Marketing asoslari. Toshkent, "Sharq", 2002.
5. STNA-Q.Yahyoiev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Fan va texnologiyalar markazi", 2003.
6. Iq.N.-M.Sharifxo'jaev, A.O'lmasov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, "Mehnat", 1995.
7. Kredit-Yo.Abdullaev, T.Boboqulov Kredit. Toshkent, "Mehnat", 1996.
8. Pul-Yo.Abdullayev, T.Qoraliev. Pul. Toshkent, "Mehnat", 1996.
9. Soliq-Yo.Abdullayev, Q.Yahyoiev. Soliq. Toshkent, "Mehnat", 1997.
10. Moliya-N.Haydarov. Moliya. Toshkent, "Akademiya", 2001.
11. "Hurriyat", "Hamkor" gazetalari, "Pul, bozor, kredit", "Mulkdor" jurnallari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston", 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni: "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida". (Toshkent sh. 1993-yil, 12-sentabr) "Toshkent oqshomi" gazetasi. 1993, 12-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori: "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida", "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi" (Vazirlar Mahkamasining 1995, 24-avgustdagi 339-son qarori.)
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori: "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish tartibi haqida. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1994.
5. Abdullayev Y. Yangi alifbo va imloni o'rgatish dasturi, O'z.RFITI, Toshkent. 1994.
8. R.Jumaniyozov, F.Eshmonov, D.Hakimov, B.Jumaniyozov "Yangi alifboni o'rganamiz". Toshkent, "Fan" 1994.
9. N.Mahmudov. "Yozuv tarixidan qisqacha lug'at ma'lumotnoma". T., "Fan", 1990.
10. S.Rizayev. "Umumta'lim maktablarining IV-V sinflarida", "Yangi alifboni o'rganamiz" (ish daftari) materiallarini taxminiy rejalashtirish. T., 1994.
11. Sh.Rahmatullayev. A.Hojiyev "O'zbek tilining imlo lug'ati". T., "O'qituvchi". 1995.
12. O.Rizayev, S.Rizayev "Yozuv daftari" (lotin harflari asosidagi o'zbek alifbosini o'rganamiz) T., 1994.
13. S.Rizayev "Rasmi alifbo" - "Boshlang'ich ta'lim", 1994. 1-2, 3-4 son.
14. N.Xolliyev. "Davlat tili tarixi va madaniyati", "O'qituvchilar" gazetasi. 1991-yil. 10-mart.
15. A.Saidov. Lotin yozuvi asosidagi yangi alifboni o'rganish bo'yicha qo'llanma. Toshkent. 1996.
16. G.Fridrix logannes. "Istoriya pisma", perevod s nemetskogo. M., "Nauka". 1979.
17. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari". "Ma'rifat gazetasi, 1994. 6 iyul.
18. I.Qo'chqortoyev. M.Tojiboyev. "Lotincha o'zbek alifbosi" (qo'llanma) T. "O'qituvchi", 1994.
19. O'qishda ham uqish bor. Tuzuvchi va yangi o'zbek yozuviga tayyorlovchi To'lqin Tog'ayev, Toshkent. "Sharq". 1998.
20. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. (Talabalar va mustaqil o'rganuvchilar uchun qo'llanma). Toshkent, "Universitet" 1999.